

(47,9%), Tayland (42,5%) kabi mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot yuqoriligicha qolmoqda⁵⁰.

Islotlarda mamlakatning xalqaro reytinglardagi mavqeini yaxshilash ham ko'zda tutilgan. Iqtisodiy erkinlik indeksida O'zbekistonning o'zni 2024 yilda 103-pog'ona bo'lgan. 2030 yilda mamlakatni 73-o'ringa ko'tarish choralari belgilangan. 30 pog'onalik bu siljish iqtisodiy muhit erkinlik, biznes yuritish sharoitlari yaxshilanishi va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Korrupsiyani qabul qilish indeksidagi natijalarni yaxshilash bo'yicha ham aniq ko'rsatkichlar belgilandi. 2024 yilda O'zbekiston 121-o'rinda qayd etilgan bo'lsa, 2030 yilga kelib mamlakat ushbu reytingda 91-o'ringa chiqishi mo'ljallangan. Ya'ni 30 pog'onalik ijobiy o'sish korrupsiyaga qarshi islohotlar samaradorligini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkin, yashirin iqtisodiyot bilan kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari soliq-byudjet siyosatini optimallashtirish va tadbirkorlik uchun iqtisodiy yukni muvozanatlash, mehnat munosabatlarini institutsional isloh qilish va norasmiy bandlikni rasmiy sektorga o'tkazish, naqd pulga bog'liqlikni kamaytirish va raqamli to'lov infratuzilmasini to'liq joriy etish, soliq va moliyaviy ma'muriyatchiligini to'liq raqamlashtirish va ma'lumotlar integratsiyasini ta'minlash, barqaror, prognoz qilinadigan va soddalashtirilgan huquqiy muhitni shakllantirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va korrupsiyani tizimli ravishda cheklash, rasmiy iqtisodiy faoliyatni iqtisodiy jihatdan jozibali qilish va rag'batlantirish tizimini kuchaytirish lozim. Biznes faqat jazo qo'rquvi bilan emas, manfaat orqali legallasadi. Legal faoliyat norasmiy faoliyatga nisbatan afzal bo'lishi shart.

BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA ESG TAMOYILLARINING IQTISODIY MAZMUNI

Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li
Qo'qon universiteti, i.f.f.d, dotsent v.b

Annotatsiya: Mazkur tezisda barqaror rivojlanish konsepsiyasining nazariy asoslari hamda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillarining iqtisodiy mazmuni o'rganilgan. Tadqiqotda barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan ESG mezonlari o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Shuningdek, ESG tamoyillarining korporativ boshqaruv, investitsiya jarayonlari hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ko'rib chiqiladi. ESG tamoyillarini joriy etish barqarorlikni ta'minlashning ustuvor vazifasi sifatida o'rganilgana. Shuningdek, tezis ESG yondashuvini iqtisodiy faoliyatga joriy etish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish maqsadlari, ESG, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv, tabiiy resurslar, investitsiyalar.

Iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi xalqaro miqyosda dolzarb muammoga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo barcha davlatlar tomonidan qabul

⁵⁰ World Bank. Informal Economy and Development: Global Estimates and Policy Implications. Washington, DC: World Bank, 2024. <https://www.worldbank.org>

qilingan 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari muhim xalqaro tashabbus sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tashabbus ekologik muhofaza, iqtisodiy taraqqiyot hamda ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga qaratilgan global rivojlanish yo'l xaritasini belgilab beradi. Belgilab berilgan maqsadlar qashshoqlikni kamaytirish, sifatli ta'limni rivojlantirish, sog'liqni saqlashni yaxshilash, ijtimoiy tenglikni ta'minlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilishni o'z ichiga oladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, Barqaror rivojlanish maqsadlari barchaga yanada yaxshi va barqaror kelajakni ta'minlash uchun mo'ljallangan strategik yo'l xaritasidir. Ular qashshoqlik, tengsizlik, iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning degradatsiyasi, tinchlik va adolat kabi global muammolarni hal etishga qaratilgan. 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari 169 ta aniq vazifalar orqali belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarga erishish jarayoni 231 ta maxsus indikator yordamida tahlil qilinadi. Shuningdek, 17 ta BRM o'zaro integratsiyalashgan bo'lib, bir yo'nalishda amalga oshiriladigan harakat boshqa sohalardagi natijalarga ham ta'sir ko'rsatishi mumkinligi tan olingan. Shu sababli barqaror rivojlanishga erishish uchun rivojlanish jarayonida turli sohalar o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim hisoblanadi.


Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari muhim ahamiyat kasb etmoqda. ESG ko'rsatkichlari kompaniyalar faoliyatini baholashda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu esa iqtisodiy faoliyatning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. ESG reytinglari kompaniyalar faoliyatini baholash uchun ishlatiladigan muhim ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu reytinglar kompaniyalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv faoliyatini tahlil qilib, umumiy baho beradi.

Ko'plab xalqaro reyting agentliklari ESG baholash tizimlarini ishlab chiqqan. Ushbu reytinglar odatda 0 dan 100 gacha bo'lgan ball yoki AAA dan CCC gacha bo'lgan reyting shaklida beriladi.

ESG reytinglari:

- investitsiya risklarini baholash;
- kompaniyaning uzoq muddatli barqarorligini aniqlash;
- ijtimoiy va ekologik mas'uliyatli investitsiyalarni imkoniyatlarni yaratadi;

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishdan iborat. Barqaror rivojlanish uch asosiy yo'nalishdan iborat (1-rasm)



1-rasm. Barqaror rivojlanish maqsadlarining 3 ta asosiy yo'nalishi⁵¹


⁵¹ Muallifning ishlanmasi

Iqtisodiy barqarorlik. Iqtisodiy barqarorlik iqtisodiy o'sishni ta'minlash, samarali ishlab chiqarish tizimini shakllantirish hamda innovatsiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Iqtisodiy barqarorlik shuningdek resurslardan oqilona foydalanish va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Ijtimoiy barqarorlik. Ijtimoiy barqarorlik jamiyatda tenglik, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlashni anglatadi. Bunga sifatli ta'lim, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish kabi masalalar kiradi.

Ekologik barqarorlik. Ekologik barqarorlik tabiiy resurslarni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash hamda atrof-muhitni himoya qilishni o'z ichiga oladi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash global iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

ESG - tashkilotning atrof-muhitga ta'siri, ijtimoiy majburiyatlari va boshqaruv sifatini o'lchaydigan ko'rsatkichlar to'plamidir. An'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlardan farqli o'laroq, bu mezonlar korporativ boshqaruvning yanada kengroq va har tomonlama ko'rinishini taklif qiladi, bu esa uzoq muddatli qiymat va manfaatdor tomonlarning farovonligini ham hisobga olish imkonini beradi. (2-rasm).



2-rasm. ESGning asosiy komponentlari⁵².

Atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash va shaffoflik va biznes etikasini yaxshilash uchun ESG amaliyotlarini qabul qilishi lozim. Ekologik xavfni kamaytirishdan tashqari, ushbu strategiyalar korporativ nufuzni oshirish, investorlar va iste'molchilar ishonchini oshirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun imkoniyatlarni taklif qiladi (1-jadval).

1-jadval

ESG amaliyotini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari⁵³.

Ekologik	Ijtimoiy	Boshqaruv
Iqlim o'zgarishi va issiqxona gazlari emissiyasi	Mehnat muhofazasi	Biznes etikasi va ma'lumotlar himoyasi
Havo ifloslantiruvchilar	Sog'liq va xavfsizlik	Kapitalni joylashtirish, ta'minot zanjiri
Suv va suvni boshqarish tizimi		Boshqaruv strukturasi va rag'batlari
Chiqindilar va zaharli moddalarni aylanmasi	Mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shish	Tashqi siyosat
Bioxillma-xillik va ekotizimlar yaroqliligi	Mahsulot va xizmatlar	

ESG tamoyillari iqtisodiyotda bir qator muhim natijalarga olib keladi:

⁵² Muallifning ishlanmasi

⁵³ Muallifning ishlanmasi

Birinchiidan, ESG mezonlari kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshiradi. Ko'plab xalqaro investorlar ESG standartlariga rioya qiladigan kompaniyalarga investitsiya kiritishni afzal ko'rmoqda.

Ikkinchiidan, ESG tamoyillari resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirib, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Uchinchiidan, ESG yondashuvi kompaniyaning ijtimoiy obro'sini mustahkamlaydi va iste'molchilar ishonchini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, barqaror rivojlanish konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu konsepsiya iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. ESG tamoyillari esa barqaror rivojlanish g'oyalarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Ular kompaniyalar faoliyatini keng qamrovli baholash imkonini beradi va investorlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) muvofiq korporativ boshqaruvni takomillashtirish orqali kompaniyalarda shaffoflik, hisobdorlik va samarali boshqaruv tizimini shakllantirish zarur. Shuningdek barqaror investitsiyalarni rag'batlantirish maqsadida investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida ESG mezonlarini inobatga olish hamda ekologik va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli loyihalarni qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi. ESG tamoyillarini keng targ'ib qilish hamda barqaror rivojlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish uchun ta'lim tizimida ushbu yo'nalishga oid o'quv dasturlari va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Environmental, Social, and Governance Performance of EU Companies. European Commission Report, 2024.*
2. *The Paris Agreement was adopted on 12 December 2015.*
3. *METI. Guidance for Integrated Corporate Disclosure and Company-Investor Dialogue for Collaborative Value Creation 2.0. Ministry of Economy, Trade and Industry, Japan, 2024.*
4. *European Commission. The European Green Deal. Brussels, 2019.*
5. *OECD. ESG Investing and Climate Transition in the Industrial Sector. Paris, 2023.*
6. *Global Corporate Sustainability Report 2025*
7. *databank.worldbank.org – Jahon bankining rasmiy ma'lumotlar bazasi*
8. *sdg.org – Barqaror rivojlanish maqsadlari rasmiy vebsayti*
9. *wikipedia.org – Vikipediya rasmiy vebsayti*

БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТНИ ТАЪМИНЛАШДА ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Д.Б.Худойбердиева

*“Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ Статистик ва бошқарув
хисоботи бўлими иқтисодчиси*

Ушбу тезисда замонавий глобаллашув жараёнлари шароитида жаҳон аҳолиси олдида юзага келаётган хавф-хатарлар, ишлаб чиқариш суръатлари ошиб бораётган бир даврда яшил иқтисодиётнинг роли ва аҳамияти ёритилади.

XXI асрда саноат ва технологик тараққиётнинг жадал ривожланиши атроф-муҳитга босимнинг ортишига сабаб бўлмоқда. Шу шароитда яшил иқтисодиёт ресурс тежамкор технологиялар, қайта тикланувчи энергия манбалари ва